

Dunyoda koronavirus tarqalishi bilan bog'liq vaziyat haqida

So'nggi ikki kun ichida dunyoda Sars-CoV-2 infeksiyasining tarqalishi tezlashdi va kunlik yangi kasallanish holatlar soni yana 270 mingga qaytdi. Bu ko'rsatkich davolanganlar sonidan deyarli 20 ming ko'pdir. So'nggi 4 kun ichida dunyoda kasallikka chalinganlar soni jami 1 millionga oshdi va 19 millionga yetdi.

Shu bilan birga, davolangan odamlar ulushi kasallanganlarning umumiy sonidan asta-sekin ko'payishda davom etmoqda. Ushbu ko'rsatkich 64 foizga yetib, o'tgan haftaga nisbatan 2 foizga oshdi.

Markaziy Osiyoda kasallanish ulushi butun dunyoda aniqlangan holatlar statistikasining haliyam 1,09 foizini tashkil qilmoqda. Tuzalganlar ko'rsatkichi nisbati 1,2, o'lim holati nisbati esa 0,6 foizga teng.

Statistika

"Worldometers" ma'lumotiga ko'ra, 6-avgust soat 17:00 holatiga dunyoda kasallanganlarning umumiy soni 19 million 5,4 ming kishini tashkil etdi, 711,8 ming odam vafot etgan.

Kasallanish holati eng ko'p qayd etilgan davlatlar: AQSH - 4 million 973,5 ming, Braziliya - 2 million 862,7 ming, Hindiston - 1 million 963,2 ming kishi.

O'lim holati: AQSH - 161 601, Braziliya - 97 418, Meksika - 49,698, Buyuk Britaniya - 46 364, Hindiston - 40 739.

COVID-19dan davolanganlarning umumiy soni 12 192 503(+251 150) kishiga yetdi, bu umumiy miqdorning 64,1 foiziga teng.

Markaziy Osiyodagi vaziyat

Qozog'istonda bemorlarning umumiy soni 95,942 nafar, 68 831 kishi sog'aygan, 1058 fuqaro vafot etgan.

"[Liter.kz](#)" xabar berishicha, Qozog'iston Xavfsizlik kengashi koronavirusga qarshi kurash uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli va oqilona ishlatilishi bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari, shuningdek, dori-darmonlar, himoya vositalarining noqonuniy savdosiga chek qo'yish va moliyaviy piramidalar faoliyati to'g'risida ma'lumotni e'lon qildi.

Xabar qilinishicha, tekshiruvlar natijasida 9,6 milliondan ortiq tibbiy niqob, 65 ming litr antiseptik vosita, 388,2 mingdan ortiq turli xil dorilar noqonuniy muomaladan chiqarilib, mahsulotlar hududiy sog'liqni saqlash organlariga topshirilgan. Shuningdek, xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash doirasida soxta schyot-faktura berish holatlari bo'yicha aniqlangan jinoyatlar soni 2,5 barobar ko'paygani qayd etildi.

Qirg'izistonda kasallikka chalinganlarning umumiy soni 38 659 ga yetdi, 30 099 kishi tuzaldi, 1 447 nafar fuqaro vafot etdi.

Bosh vazir K.Boronov Sog'liqni saqlash vazirligi rahbariyatini rentgen apparatlarini sotib olish masalasi yetarlicha o'rganilmagani uchun tanqid qildi. Bu haqda hukumat matbuot xizmati xabar bermoqda.

Shuningdek, Respublika tezkor shtabining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Issiqko'l va Norin viloyatlaridagi sog'liqni saqlash muassasalari va tashkilotlarida tibbiy uskuna, dori-darmon va shaxsiy himoya vositalari mavjudligi va ularga ehtiyojni monitoring qilish to'g'risida ma'lumot tinglandi. Ixtisoslashgan davlat idoralari va mahalliy hokimiyat organlariga, jumladan, sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inlari mutaxassislarining malakasini oshirish, tibbiy muassasalarda infeksiyani nazorat qilishni kuchaytirish hamda uyma-uy yurishni tashkil etish bo'yicha bir qator ko'rsatmalar berildi.

Tojikistonda kasallanganlarning umumiy soni - 7 625, 6 399 kishi sog'aydi, 61 fuqaro vafot etgan.

Dunyodagi so'nggi tendensiyalar.

UYEFA ushbu haftada Chempionlar Ligasi va Yevropa Ligasi tiklanishini hisobga olib, klublarni pandemiya

sharoitida o'yinlarni tashkil qilish uchun ilgari tasdiqlangan protokollarni buzilishiga yo'q qo'ymaslik lozimligi haqida ogohlantirdi. "BBC Sport" xabariga ko'ra, qoidabuzarlik bo'lgan taqdirda xalqaro o'yinlar o'tkaziladigan joylar qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Tashkilot ilgari ikkita turnirda ishtirok etayotganlarning xavfsizligi uchun bir nechta bayonotnomalarni taqdim etgan. Ular niqob taqish, o'yinchilarni testdan o'tkazish va sayohat uchun charter reyslaridan foydalanish qoidalariga bag'ishlangan bo'lib, ularni buzish jiddiy jarimaga qo'llanilishiga olib keladi. Shu hafta ikkala turnir ham qayta boshlandi.

Frans-Press (AFP) agentligi San-Paulu universiteti olimi D.Alves bilan suhbatlashdi. Koronavirusning tarqalish tezligi va braziliyaliklar orasida o'lim darajasi yuqori ekanligini hisobga olib, u 15 yoki 16-oktyabrga kelib Braziliyada o'lim soni ikki barobar oshib, 200 000 ga yetishini taxmin qildi. Mutaxassisning so'zlariga ko'ra, mamlakatda kasallanish darajasi pandemiyaning asosiy zarbasini o'ziga olgan chekka shtatlarda o'sib bormoqda. Ammo epidemiologik vaziyat yaqin vaqtgacha xavfsiz deb hisoblangan shtatlarda ham yomonlashmoqda. Bular Braziliyaning janubiy va g'arbiy-markaziy mintaqalari.

Shu bilan birga, D. Alves tasdiqlangan holatlar soni hali ham haqiqiy statistikadan ancha past ekanini ta'kidladi. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, raqamlar haqiqiy ko'rsatkichdan olti-yetti barobar kam, pandemiyaning boshida esa 16 barobar kam ko'rsatilgan. Koronavirus bo'yicha testlar o'tkazishni kengaytirish tufayli statistika yaxshilandi.

Vaksina va dori ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar, tadqiqotlar

Amerikaning "Johnson&Johnson" kompaniyasi AQSH hukumati bilan COVID-19 ga qarshi vaksinaning 100 million dozasi yetkazib berish bo'yicha 1 milliard dollarlik bitim tuzdi. Bu haqda kompaniya saytida xabar beriladi.

Ta'kidlanishicha, AQSH Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar vazirligining (BARDA) Istiqbolli biotibbiyot tadqiqotlari va ishlanmalari boshqarmasi mamlakat Mudofaa vazirligi bilan birgalikda ushbu bitimni amalga oshirish uchun ushbu mablag'ni ajratadi. Avvalroq, "Johnson&Johnson" vaksinaning birinchi partiyasi 2021-yil boshida tayyor bo'lishini kutayotgani haqida xabar bergan edi. Kompaniya bosh direktori P. Stoffelsning aytishicha, birinchi partiya butun dunyo bo'ylab tibbiyot xodimlarini emlash yetishi kerak. Pirovardida, kompaniya 1 milliarddan ortiq doza ishlab chiqarishni maqsad qilgan.

Islandiyaning "Decode Genetics" tadqiqot kompaniyasi koronavirusdan tuzalganlarda COVID-19 ga qarshi antitanachalar shakllanishini o'rganib chiqdi. Kompaniya mutaxassislari qariyalarda antitanachalar yoshlarga qaraganda ko'proq, o'z o'rnida, erkaklarda ayollarga qaraganda ko'proq ekanligini aniqladi. Tadqiqot tafsilotlari "Sputnik International" da ko'rsatilgan.

Tadqiqotda 30 ming Islandiya fuqarosi ishtirok etib, ulardan PSR testi namunalari olingan. Ularning qariyb 1 foizi koronavirusga qarshi antitanachalar ishlab chiqqan.

Shuning uchun "Decode Genetics" ekspertlari tuzalgandan so'ng antitanachalar ulushi tez fursatda kamayishining hech qanday belgilari yo'q, deb ta'kidlamoqda. COVID-19 qarshi antitanachalar shakllangan odamlarda uzoq vaqt davomida virusdan himoya bo'ladi. Ta'kidlanishicha, shu tariqa, Britaniya, Germaniya va Xitoy olimlarining insonda sog'aygandan 2-3 oy o'tgach antitanachalar yo'q bo'lib ketishi haqida ilgari surilgan fikrlari amalda tasdiqlanmasligi ehtimoli yuqori.

COVID-19 ning salbiy oqibatlarini kamaytirish va karantindan chiqish choralari

Turkiyada epidemiyaga qarshi qoidalarga amal qilish bo'yicha keng qamrovli tekshiruv o'tkazilmoqda. "RIA Novosti" xabar berishicha, IVV tomonidan bozorlar, do'konlar, savdo markazlari, restoran va transport tekshiriladi. Turkiya ichki ishlar vaziri S.Soylu so'zlariga ko'ra, ushbu jarayonda turli darajadagi mansabdor shaxslar, shu jumladan, provinsiyalar gubernatorlari va shahar merlari ishtirok etadi. So'nggi uch kun ichida respublikada yangi kasallanish holatlari ko'payishi kuzatilmoqda.

6-avgust kuni ertalab mahalliy OAV virus mamlakatdagi kurortlarda avj olishi mumkinligi haqida xabar

berdi. Ammo Turkiya Sog'liqni saqlash vazirligi bu xabarlarni rad etdi. Ayni paytda mahalliy "NTV" telekanali Turkiya parlamenti spikeri M.Shentopga tayanib, mamlakat parlamentining 9 nafar deputati koronavirus bilan kasallangani haqida xabar berdi. Shunindek, parlamentning 35 nafar a'zosi ushbu kasallikdan davolanmoqda.

«Eureporter.co» xabariga ko'ra, Shotlandiyaning Aberdin shahrida COVID-19 tarqalishiga qarshi kurashish maqsadida pablar va restoranlar yopilmoqda. Mahalliy hokimiyat ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 24 soat ichida shaharda 54 ta kasallanish holati aniqlangan, mamlakatda jami holatlar - 64. Hukumat shahar aholisiga ishlash yoki o'qish uchun zarurat bo'lmagan taqdirda sayohat qilishdan o'zini tiyishni tavsiya qildi. Qo'shnilar va qarindoshlarnikiga tashrif buyurish qat'iyan man etiladi.

"Tagesschau" portali xabar berishicha, Germaniyadagi federal o'lkalar niqob taqish talablariga rioya qilmaganlik uchun jarima miqdorini oshirishni rejalashtirmoqda. Masalan, Quyi Saksoniya, Shlezvig-Golshteyn, Reyn-Vestfaliya jarima miqdorini 20 yevrodan 150 yevrogacha oshirishni rejalashtirmoqda. Yaqin kelajakda bu kabi qoidalarni buzganlik uchun jiddiyroq sanksiyalarni nazarda tutadigan yangi miqdordagi jarimalar taqdim etiladi.

Mamlakat miqyosida chakana savdo do'konlari va jamoat transportida niqob taqish majburiy hisoblanadi, biroq ba'zi federal o'lkalarda maxsus qoidalar va jarimalar amal qiladi. Masalan, Bavariyada jarimalar ro'yxatida niqob taqish talabini buzganlik uchun jarima miqdori 150 yevro deb ko'rsatilgan. Berlinda esa jarima miqdori 50 yevrodan 500 yevrogacha bo'lishi mumkin.